



## O'ZBEK TOPONIMLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Jo'raboyeva Gulrux Solijonovna

FarDU tilshunoslik kafedrasи kata o'qituvchisi, (PhD),

<sup>2</sup>Asrayeva Dilnoza G'ofurovna

FarDU Lingvistika(o'zbek tili) yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7553224>

### ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 18<sup>th</sup> January 2023

Online: 20<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

Onomastika, topomin, gidronimiya, oronimiya, oykonimiya, mikrotoponimiya, etnotoponimlar, antropotoponimlar, urbanonomiya, polinimiya.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada toponimlar va ularning paydo bo'lish sabablari, tamoyillari, turlari, taraqqiyot bosqichlari, toponimikaning fanlar qatoridagi o'rni, yirik toponimshunos olimlarning qarashlari haqida qisqacha fikr yuritildi. Toponimlarning kishilik jamiyatidagi zaruriy funksiyasi haqida xulosalar keltirildi.*

Insoniyat ibridoiy jamoa tuzimi davridan to hozirgi kungacha o'z turmush tarzida qulayliklar yaratishga intilib kelmoqda. Kishi ko'zi bilan ko'rib turgan buyumni, muloqotda bo'layotgan insonlarini, yashayotgan hududini ma'lum bir nomlar asosida atashi ijtimoiy hayotda bir muncha yengilliklarga sabab bo'ladi. Bu nomlar xilma-xil siyosiy-tarixiy jarayonlar va tillarning rivojlanish bosqichida sayqallanib keladi. Insonlar istiqomat qilayotgan hududlarini ham nomlaydilar. Aynan geografik nomlar aholining qadimgi davrlardagi ko'chishlari, o'zaro muloqotlari, kasb-korlari, turmush tarzi haqida ma'lumot beradi. Qadimda joylarni nomlash bir daryoni ikkinchisidan, bir o'tloqni boshqasidan, bir qabilani keyingisidan farqlash imkoniyatini bergen. Joy nomlarini o'rganadigan sohatoponimika deb ataladi. Bu sohani geografiya fanlari doktori Y.I.Ahmadaliev "Farg'ona viloyati toponimlari" qo'llanmasida "geografiya, tarix va tilshunoslik fanlari oralig'idagi fan" deb izohlaydi.<sup>1</sup>

Toponimlar paydo bo'lishining umumiyl lingvistik qonuniyatlarini Professor S.Qorayev batafsil tushuntirib bergen. Toponimlar atoqli otlar bo'lib, ular til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlardan kelib chiqqan. Qadimiy tillarda atoqli otlar bo'lмаган, qandaydir so'z birikmalari atoqli ot vazifasini bajargan. Ana shunday so'z birikmalari turg'un shakl olgan. Odamlar tevarak-atrofdagi o'zlariga tanish hududdagi joylarni "Baliq tutiladigan ko'l", "Sel keladigan soylik" kabi butun bir gaplardan iborat so'z birikmalari bilan ataydilar. Aniq geografik obyektlarni ifodalashda bunday so'z birikmalari va turdosh otlar ko'p bo'lмаганligi uchun bora-bora atoqli otlarga aylangan. Geografik nom paydo bo'lishi umumiyl

<sup>1</sup> Y.I.Ahmadaluyev. Farg'ona viloyati toponimlari. -Farg'ona, 2009.-3-5 betlar.



tushunchaning konkretlashishi va individualashuvi natijasida yuz beradi.<sup>2</sup> Demak, toponimlarning asl ildizi tabiat hodisalari, geografik muhitga borib taqalar ekan.

So'z birikmalari orqali toponimlarni ifodalash insonlarga qiyinchilik tug'dirganligi tufayli atoqli otlar hosil qilingan. Va bu jarayon til taraqqiyotida ham o'z aksini topgan. Manzillarni aniq ifoda etish uchun toponimlarning vujudga kelishi muhim hodisa hisoblanadi. Toponim so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'riflanadi: "yunoncha so'z bo'lib, topos- "joy" va onyma- "nom" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, joy nomlari haqidagi fanni anglatadi". Joy nomlari, ya'ni toponimiya bir necha turga bo'linadi. Bular: gidronimiya (yunoncha gidrosuv), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'lтиqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros-tog'), ya'ni yer yuzasining relef shakllari -tug'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos-uy), polinimiya (yunoncha polis-shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos-shahar), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari; mikrotoponimiya (yunoncha mikros-kichik), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, daraxtzorlar, jarliklar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otlarga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari.

Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos-xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropoponimlar (yunoncha antropos-odam) deb atash mumkin.<sup>3</sup> Bundan anglashiladiki, toponimika juda keng tarmoqli soha hisoblanadi. Geografik hududlarning tarixi, rivojlanish jarayoni, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi asosiy ma'lumotlar ularning nomlarida o'z aksini topganligi tufayli toponimlar bir vaqtning o'zida tarixchilar, geograflar, geologlar, etnograflar, arxeologlar va tilshunoslarning o'rganish obyektlaridan biriga aylangan. Geografik nomlarni ilmiy jihatdan o'rganish o'sha hududda istiqomat qiluvchi xalqning tarixi, turmushi, tili haqida muhim ma'lumotlar beradi. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'yusunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik-lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o'rganadigan onomastika fanning bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Toponimlarning paydo bo'lishida birinchi va eng keng tarqalgan tamoyil aholi joylashgan hududning tabiiy geografik xususiyatining e'tiborga olinishidir.

Masalan, Namangan viloyatidagi Ariqyoqa qishlog'i ariq bo'yida joylashganligi uchun shunday nomlangan. Hosil bo'lishi: ariqning yoqasi> ariq yoqasi> Ariqyoqa; Dashtiso'xta- Samarqand viloyati Samarqand tumanidagi qishloq, toponim dasht va izofa ko'rsatkichi va so'xta so'zlarining birikuvidan yasalgan. Nomning ikkinchi qismidagi so'xta so'zi tojikcha so'xtan-kuymoq, yonmoq fe'liga aloqadordir. Umumiylar ma'nosi-kuygan dasht demakdir. Havo haroratining o'ta yuqori bo'lishi tufayli hudud shunday nomlangan. Toponimlarning nomlanishidagi keyingi tamoyil bu-shu hududda istiqomat qiladigan aholining kasb-kori va mashg'uloti bilan bog'liq.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi Aspjallobo qishlog'inining nomi ham aholining mashg'uloti nomini bildiradi, ya'ni tojikcha asp-ot, arabcha jallob-sotuvchi so'zlarining birikuvidan yasalgan bo'lib, ot sotuvchi savdogar ma'nosini anglatadi. Bundan tashqari Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida paxta ko'p yetishtirilganligi uchun shunday nom

<sup>2</sup> .Y.I.Ahmadaluyev. Farg'ona viloyati toponimlari. -Farg'ona, 2009.-3-5 betlar

<sup>3</sup> S.Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari.- Toshkent: O'zbekiston milliy nashriyoti ensiklopediyasi, 2005.- 320 bet.



olgan. Qo'qon shahrining Ko'nchilik qishlog'i, Buxoro shahrining Mahsido'zon mahallasi, Marg'ilon shahrining Miltiqsoz mahallasi nomlari ham hudud aholisining faoliyati nomi bilan atalgan. O'zbek topominlarining ko'pchiligi hududda yashagan urug'-qabila nomi bilan nomlanish tamoyiliga asoslangan. Bunga misol sifatida mamlakatimizning ko'plab hududlarida takrorlanadigan Yuz, Jaloyir, Nayman, Qipchoq, Uyg'ur, Mo'g'ul kabi mahallalar va qishloq nomlarini keltirish mumkin. Tozaqiyot qishloq nomi (Xorazm viloyati)ning birinchi qismidagi toza so'zi Xorazm shevasida yangi ma'nosini beradi. Qiyot esa o'zbek xalqi tarkibida uchraydigan urug' nomi. Tozaqiyot-yangi qiyot ma'nosini anglatadi. Aholining etnik belgisi asosida vujudga kelgan Qirg'izqishloq, Qozoqqishloq, Xitoyqishloq, Avg'onqishloq, Qozoqovul kabi topominlar boshqa xalqlarning shu hududlarga kelib o'rashib qolishi natijasida vujudga kelgan. Joy nomlarining hosil bo'lishida antropomimlarning ham o'rni beqiyos. Mansabdorlarga qarashli xususiy yerlar vaqt o'tishi bilan shu mansabdorning nomi bilan atala boshlangan. Masalan, Nazarmahram (Andijon viloyati), Nasriddinobod (Andijon viloyati), Sheralichek (Andijon viloyati), Risqulibek guzari (Qo'qon shahri), Matqulobod (Farg'ona viloyati). Ayniqsa Qo'qon xonligi davrida vodiylarining ko'pchiligi mansabdorlarga bo'lib berilganligi uchun atoqli otlarga "chek" so'zini qo'shib topominlarni hosil qilish keng yoyilgan. (Sheralichek, Madaminchek, Xudoyorxonchek, Musulmonqulchek, Berdimurodchek).

Keltirilgan misollarda kishi nomlari topominlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ayrim topominlar insonlarga ism bo'lgan holatlar ham uchraydi. Ayniqsa, turkiy xalqlarda farzandlarni joy nomlari bilan nomlash qadimdan rasm bo'lgan. Toshkanboy, Qo'qonboy, Sayramboy shular jumlasidandir. Topominlardan nom olgan ismlar ko'p emas, biroq joy nomlarini o'zlariga nisba, ya'ni nisbiy familiya qilib olgan mashhur kishilar tarixda ko'p bo'lgan. Andijoni, Buxoriy, Nomongoni, Samarqandiy, Termizi, Toshkandi, Xorazmiy singari ko'plab allomalar o'tgan. Kishilar qaysi urug'dan ekanliklarini ham o'zlariga nisba qilib olganlar: Abdurahmon Qiyot, Qurbonboy Yuz, Mirkomil Nayman va h.k.

Hafta kunlari bilan atalgan joy nomlari ham uchraydi. Bunga sabab shu hafta kunlarida yirik bozorlarda savdo-sotiq bo'lganligidir. Shahrisabzdagi Chorshanba, Kattaqo'rg'ondag'i Payshanba, Pastdarg'omdag'i Juma, Buxorodagi Shanba topominlari shular jumlasidandir. Anglashilgan narsaning mo'lligini bildiruvchi joy nomlari ham mavjud. Bular: Sangiston (sangtosh, -iston-joy oti yasovchi qo'shimcha, ya'ni toshli yer, toshloq), Toshloq, Guliston, Qumtepa va h.k. Ayrim topominlar tarixiy voqealar, afsona va rivoyatlari asosida nomlanadi. Voqebo'lgan hudud mahalliy xalq orasida uzoq yillar shu voqeab bilan atalgach, vaqt o'tishi bilan asta-sekin toponomiga aylanadi. So'z birikmasi holatidagi birliklar endi qo'shma so'zga aylanib yaxlit tushunchani ifodalay boshlaydi: Qo'yqirilganqal'a, Ajinako'pri, Otdasakrash, Cho'li Jaloliy, Kaptarlimozor kabilar shular jumlasidandir.

Urbanonimlar-shahar ichidagi ko'cha-ko'ylarning va boshqa obyektlarning nomlari ham atoqli otlar bo'lib, ko'pincha turdosh otlardan tarkib topgan. Ana shunday nomlardan hosil qilingan so'zlar toponomik leksika deyiladi. Masalan, Ark(forscha)-poytaxtning markaziy qismidagi qasr, xon yoki amir saroyining mustahkamlangan qismi va saroyning o'zi ham. Bekat-transport vositalarining to'xtash joyi, stansiya(frantsuzcha piket-joy xaritaga tushirilayotganda harbiylar yerga qoqadigan qoziq) Piket so'zi rus tiliga beket shaklida o'tgan. O'zbekistonda



dastlab o'rmon qorovullari yashaydigan joy, qorovulkona bekat deyilgan<sup>4</sup> Temir yo'l stansiyalari ham harbiylar tomonidan qo'riqlangan va dastlab bekat deyilgan. Hozirgi kunda bu turdosh otlar toponim sifatida qo'llanilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, toponimlar barcha xalqlar haqida asrlar osha axborot uzatuvchi, lingvistik ma'lumotlar tashuvchi muhim onomastik birliklar hisoblanadi. Ma'nosidan qat'i nazar toponimlar kishilik jamiyati uchun eng muhim zaruriy funksiyasi manzil bo'lib xizmat qilishdir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng toponimlarni milliylashtirish-ilmiylashtirishga ko'p e'tibor berilmoqda. Sobiq ittifoq davridan qolib ketgan nomlar (Kalinin, Krupskaya, Lenin, Ilich, Karl Marks, Qo'ybeshev, Kirov va h.k) o'zgartirilib, milliy qahramonlarimiz (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Muqanna); mutafakkir allomalarimiz (Farobi, Navoiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek); davlat arboblarimiz (Sharof Rashidov, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Habib Abdullayev); jadid bobolarimiz (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat); vatanimiz tabiatiga xos bo'lgan nomlar (Guliston, Oltinkon, Mingbulloq) bilan atash toponimikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Har qanday geografik obyekt nomi yozilishining rasmiy va umumiste'mol uchun yagona shaklini aniqlash va qat'iylashtirish geografik nomlarni standartlashtirishning mohiyati va vazifasi sanaladi. Geografik nomlarning-nominatsiya-atalish qonuniyatlarini o'rganish, ularni tizimga solish, ularning yozilish qoidalarini yaratish, yozilishini milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish masalalari bilan YUNESKO va boshqa tashkilotlar shug'ullanmoqda.

### References:

1. Z.Do'simov. Xorazm toponimlari.-Toshkent: Fan, 1985.-102 bet.
2. Y.I.Ahmadaliyev. Farg'ona viloyati toponimlari. -Farg'ona: Farg'ona, 2009.-140 bet.
3. S.Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari.-Toshkent: O'zbekiston milliy nashriyoti ensiklopediyasi, 2005.-320 bet.
4. S.Qorayev. Toponimika.- Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.-320 bet.
5. Z.Do'simov., X. Egamov.-Toshkent: O'qituvchi, 1977.-176 bet 6.Joy nomlari ta'biri. Toshkent: O'zbekiston, 1994.-88 bet.

<sup>4</sup> S.Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari.- Toshkent: O'zbekiston milliy nashriyoti ensiklopediyasi, 2005.- 320 bet.